



ISSN (E): 2181-4570

Askiyaning lingvistik xususiyatlari**Ataxanova Asaloy. Urganch davlat universiteti****Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi 1-bosqich magistranti**

Annotatsiya: Xalqimiz boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelayotgan og'zaki ijod na'munalarini o'rganish, ularda aks etgan xalq hayotini insoniy tuyg'ular tasvirini ko'rsatish, ularni leksik jihatdan chuqur tadqiq ostiga olish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. Tadqiqot manbayi askiyaga xos bo'lgan lingvistik xususiyatlarni o'rganish, chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: Askiya, so'z o'yini, payrov, so'z qo'llash talabi, payrov talabi, sintaktik talab

Abstract: It is always important to study the examples of oral creativity that are living as an integral part of the rich spiritual heritage of our nation, to show the image of the people's life reflected in them, and to take them under lexical deep research. The source of research requires the study of linguistic

features of Askiya, a deep analysis.

Key words: Askiya, word game, payrov, word usage requirement, payrov requirement, syntactic requirement

O'zbek xalq og'zaki ijodi na'munalarini o'rganish bugungi kunda nafaqat adabiyotshunoslik, tilshunoslikning ham oldida turgan muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Xalq og'zaki ijodiga mansub tadqiqot talab masalalardan biri bu askiya hisoblanadi. Bugungi kunda qadar adabiyotshunos olimlar tomonidan askiya borasida ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirildi, to'plamlar yaratildi. Shunday bo'lsa ham, askiya tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilishga muhtojligicha qolmoqda.

Askiya haqida fikr yuritishdan oldin uning asl mohiyati haqida qisqacha mulohaza yuritish lozim. O'zbek tilining izohli lug'atida askiyaga so'z o'yiniga, qochiriqlarga asoslangan hozirjavoblik musoboqasi sifatida ta'rif berilgan. Askiya-o'zbek xalq og'zaki ijodining yumorga asoslangan kichik janri bo'lib, boshqa xalqlar adabiyotida uchramaydi. Bu askiyaning boshqa xalqlar folklor janrlarida uchramaydigan o'ziga hos alohida xususiyati hisoblanadi. Boshqa xalqlarda bu janrning uchramasligini esa, asosan, o'zbek tilining ifoda imkoniyatlari boyligi hamda xalqimizning mutoyibaga boy mentaliteti bilan izohlash maqsadga muvofiqdir¹.

¹ Do'stmatov X. Askiya matni lingvostilistikasi. Toshkent: Fan, 2015. 12-bet





Tomoshabinlarda kulgu qo‘zg‘atuvchi so‘z va qochirimlar, hozirjavoblik va zakiylikni ko‘rsatib beruvchi dialogik va polilogik bahs, so‘z o‘yinlari va hazil-mutoyibaga asoslangan, uzoq yillar davomida xalqimiz hayotiy tajribasi negizida yaratilgan askiyalarda xalq hayotining barcha jabhalari qamrab olinganligi uchun ham mavzu doirasi keng qamrovli bo‘ladi.

Askiyalar orqali tomoshabinlarda kulgu qo‘zg‘atish askiyachining so‘z qo‘llash mahoratiga, so‘z boyligiga, o‘zbek tilining ifoda imkoniyatlaridan foydalana bilishiga bog‘liq. Askiyalarda ko‘zlangan maqsadga erishish, tomoshabinlarda yengil kulgu uyg‘otish, so‘z qo‘llash bilan bog‘liq o‘ziga xos talablar bo‘ladi. Bular quyidagilar:

1. So‘z o‘yini vositasida bellashish
2. Payrov mavzusini yoritishda mavzuga doir lingvistik birliklarni, atamalarni qo‘llash
3. Mavzu doirasidan chetga chiqmaslik
4. Hozirjavoblik
5. So‘z o‘yining poetik talablar asosida badiiy va sirli tarzda olib borish
6. Fikrlar izchilligi, mantiqiy bayonga amal qilish
7. Til birliklari yordamida birdan ortiq axborot ifodalash
8. Lisoniy til birliklarining nutqdagi imoniyatlarini ko‘rsata bilish
9. So‘z qo‘llash talabi:
 - a) payrov talabi
 - b) sintaktik talab

Bunda payrov mavzusiga doir atamalarni qo‘llash birlamchi talab (payrov talabi) hisoblansa, tilning grammatik qonun- qoidalariga amal qilib so‘z qo‘llash hamda qo‘shimcha axborot ifodalash ikkilamchi talab (sintaktik, stilopragmatik talab) hisoblanadi². Masalan:

Juda katta qurilish bo‘layotgan joyga komissiya kelibdi. Muhandis u yoqqa, ishboshi- prorab bu yoqqa halloslab choparmish. Yetti-sakkiz quruvchi esa quruq zambilg‘altakni shaldiratib, u yoqdan- bu yoqqa g‘ildiratarmish. Komissiya a‘zolari hayron bo‘lishib, qurilish boshlig‘idan so‘rashibdi.

- Nima ishbo‘lyapti o‘zi?
- Qurilishda qayta qurishni jadallashtiryapmiz, - deb javob beribdi boshliq.

² Do‘stmatov X. Askiya matni lingvostilistikasi. Toshkent: Fan, 2015. 35-bet





- Zambilg‘altaklarda yuk yo‘q-ku?!
- Ishlarni tezlashtirganimiz uchun yuklarni ortishga ham vaqt yetmayaptida!

Ushbu askiyada kulgu qo‘zg‘atish bir qancha vositalar yordamida amalga oshgan. Askiya matni an‘anaviy boshlanma va dialogik nutqdan iborat. Ushbu misol qurilish haqida bo‘lganligi uchun qurilish so‘zi birlamchi talab bo‘lib, payrov talabi hisoblanadi. Askiya mavzusini yoritish uchun “Qurilish”, “Qayta qurish” so‘zlari mavzuga doir lingvistik birlik sifatida qo‘llanilgan. Keltirib o‘tilgan misolda hozirjavoblik, mavzudan chetga chiqmaslik, fikr izchilligi, lisoniy til birliklarining nutqdagi imkoniyatlarini ko‘rsata bilish, fikr izchilligi mantiqiy bayonga amal qilish kabi talablarning barchasiga amal qilingan.

Bir odam ig‘vogarlighi tufayli qishloqda otning qashqasidek bo‘lgan ekan. Ko‘chada ketayotgan Afandining ro‘parasidan o‘sha ig‘vogar chiqib qolibdi. Shunda afandining eshagi ketma- ket hangrab yuboribdi. Haligi ig‘vogar afandiga debdi:

- Bu qanaqasi, aytib qo‘ysangiz bo‘lmaydimi? Mening yonimda hangraydimi?

- Birodar, - debdi Afandi, buning tiliga siz tushunmasangiz men tushunmayman.

Shu payt eshak boshini qattiq silkib, haligi odamning basharasiga so‘lagini sachratibdi.

- Aytib qo‘ying, uning ustidan yozib, ta‘zirini beraman!

- E – e, tushunarli, - debdi Afandi, - men emas o‘zingiz ayting, uning tiliga siz tushunar ekansiz. Eshak har holda eshak-da!

Ushbu askiya matnidagi tagma‘no afandi va ig‘vogar o‘rtasidagi dialogik nutq ko‘rinishida voqelangan. Ushbu misolda ham askiyachi so‘z o‘yini vositasida nozik ma‘no ifodalashga harakat qilgan. Afandi ig‘vogar raqibidagi salbiy hislatlarni so‘z o‘yini vositasida eshakka qiyoslash orqali tinglovchida yengil kulgu paydo qiladi. Mavzu doirasidan chetga chiqmaslik, fikr izchilligi, mantiqiybayonga amal qilish, hozirjavoblik kabi talablarning barchasiga amal qilinishi askiyabozning mahoratini ko‘rsatib bergan.

Askiya haqida fikr yuritar ekanmiz yana bir muhim jihatga alohida e‘tior qaratishimiz lozim. Askiya san‘atining asosini badiiy adabiyotdagi iyhom va tajnis san‘atlari tashkil etadi. Askiyada esa ko‘proq iyhom san‘atidagi so‘z o‘yini yetakchilik





qiladi. Ba'zan bu san'at shu qadar murakkablashib ketadiki, uni aytilgani zahoti anglab olish ham qiyin bo'ladi³:

Ohunjon qiziqning tanishlaridan biri ko'chada hol-ahvol so'radi.

- Ohunjon aka, ishlaringiz qalay?
- E uka, qalay nimasi, oltin!
- Rostdan-a?
- Ha-da! Qizichilikning reviziyasi bo'lmagandan keyin yomon bo'larmidi?

Keltirgan ushbu misolda ham askiyachi tinglovchilarda kulgu uyg'otish uchun kulgu qo'zg'atuvchi vositalardan foydalangan. Eng ko'zga tashlanadigan jihati esa askiya matnida omonim so'zlarni qo'llash orqali askiyadan ko'zlangan maqsadga erishilgan. "Qalay" so'zi o'zbek tilida qanday?, qanaqa? ma'nolari bilan bir qatorda tabiatda uchraydigan metall nomini ham anglatadi. Askiyada bu so'z dastlab so'roq olmoshi sifatida qo'llangan bo'lsa Ohunjon qiziq nutqida metall ma'nosida qo'llanilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, askiya o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janri bo'lib, tilimizning juda boy imkoniyatlarga ega ekanligini ko'rsatib beradigan boy ma'naviy neris hisoblanadi. Eng e'tiborlisi, askiyani o'ylab topish, javob qaytarish, uni tushunib yetish oson emas. Askiyani tushunish, raqibga javob qaytarish uchun o'zbek tilining nozik qirralarini chuqur anglab yetish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Madayev O. O'zbek xalq og'zali ijodi. Toshkent: Mumtoz so'z, 2010
2. Do'smatov X. Askiya matni lingvostilistikasi. Toshkent: Fan, 2015
3. Do'smatov X. Asosi bitta so'zdan iborat askiyalar matni. Farg'ona
4. Boltaboyeva U. Askiya san'atiga bir nazar. Farg'ona: So'z san'ati xalqaro jurnali, 2020

³ Madayev O. O'zbek xalq og'zali ijodi. Toshkent: Mumtoz so'z, 2010. 90-bet

